

ADABIYOT DARSLARIDA EPIK VA DRAMATIK ASARLAR TAHLILIDA METODOLOGIK YONDASHUVLAR

Abdujabborova Nilufar

NamDPI O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Email: abdujabborovanilufar1214@gmail.com Tel: +998952430398

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21158820>

Annotatsiya: Ushbu maqolada epik va dramatik adabiy turlarning badiiy tahlilida qo'llaniladigan asosiy metodologik yondashuvlar ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Epik asarlar tahlilida tafsilot, qahramon xarakteri mantiqiga muvofiqlik, timsol individual o'ziga xosligi va estetik samaradorlik tamoyillari; dramatik asarlar tahlilida esa, qahramon nutqining hal qiluvchi roli, sahnaviylik, peripetiya usuli va dramatism kategoriyalari alohida asoslanadi. Tadqiqot Abdulla Qahhorning “O'g'ri” hikoyasi va Sofoklning “Shoh Edip” tragediyasi misollarida olib borilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, epik va dramatik asarlar tahlili - asarning mazmunini so'zlab berish emas, balki undagi insoniy xarakter, badiiy mohiyat va ma'naviy qadriyatlarni kashf etish jarayonidir. Ushbu ikki turning metodologiyasi o'rtasida ham umumiylik, ham muhim farqlar mavjud bo'lib, bu tahlilchidan har bir turga o'ziga xos yondashuv talab qiladi.

Kalit so'zlar: epik tahlil, dramatik tahlil, tafsilot, timsol, sahnaviylik, peripetiya, qahramon nutqi, tragediya.

English Translation:

Abstract: This article scientifically analyzes the key methodological approaches used in the literary analysis of epic and dramatic genres. In the analysis of epic works, the principles of detail, consistency with the logic of character, individual distinctiveness of the image, and aesthetic effectiveness are substantiated; in the analysis of dramatic works, the decisive role of the character's speech, stagability, the method of peripeteia, and the categories of dramatism are separately justified. The research was conducted using the examples of Abdulla Qahhor's short story “The Thief” and Sophocles' tragedy “Oedipus Rex.” The results showed that the analysis of epic and dramatic works is not a retelling of the content, but a process of discovering human character, artistic essence, and spiritual values within them. There are both commonalities and significant differences between the methodologies of these two genres, which requires the analyst to apply a distinctive approach to each genre.

Keywords: epic analysis, dramatic analysis, detail, image, stagability, peripeteia, character speech, tragedy

Аннотация: В данной статье научно анализируются основные методологические подходы, применяемые при художественном анализе эпического и драматического литературных родов. В анализе эпических произведений обосновываются принципы детали, соответствия логике характера героя, индивидуального своеобразия образа и эстетической эффективности; в анализе драматических произведений отдельно аргументируются решающая роль речи героя, сценичность, метод

перипетии и категории драматизма. Исследование проводилось на примерах рассказа Абдуллы Каххара “Вор” и трагедии Софокла “Царь Эдип”. Результаты показали, что анализ эпических и драматических произведений - это не пересказ содержания, а процесс раскрытия человеческого характера, художественной сущности и духовных ценностей, заключённых в них. Между методологиями этих двух родов существуют как общие черты, так и существенные различия, что требует от аналитика особого подхода к каждому из них.

Ключевые слова: эпический анализ, драматический анализ, деталь, образ, сценичность, перипетия, речь героя, трагедия.

Kirish (introduction). Badiiy adabiyot insonshunoslikning eng nozik sohasiga ega bo'lib, uning asarlarini tahlil qilish san'ati adabiyotshunoslikning eng mas'uliyatli yo'nalishi hisoblanadi. H.Umurov ta'kidlaganidek, tahlilchi “asarning hayotiy va badiiy ma'nosini kashf eta olishi, o'z mushtariylarida epik asar zamiridagi badiiy ma'noni ilgay olish va mantiqiy xulosaga kela bilish malakasini shakllantirish”ga intilishi lozim. Bu ta'rif badiiy tahlilning mohiyatini qisqa va lo'nda belgilaydi: maqsad - kashfiyot, xabar berish emas.

Adabiy turlar ichida epik va dramatik turlar o'z badiiy tabiati jihatidan bir-biridan tubdan farqlanadi. Epik asarlarda hayotiy ko'lamning kengligi, murakkab insoniy taqdirlar, qahramonlar ruhiyatidagi sanoqsiz to'lqinishlar voqealar asnosida idrok etilishi zarur. Dramatik asarlarda esa muallif bevosita ishtirok etmaydi - barcha ma'no qahramon nutqi, sahnaviy ziddiyat va harakat orqali yuzaga keladi. Shu o'ziga xoslik sababli ikkala turning tahlil metodologiyasi alohida-alohida o'rganilishi zarur, ammo o'zbek adabiyotshunosligida bu soha hali to'liq tizimlashtirilmagan.

Muammo shundaki, adabiyot tahlili amaliyotida ikki noto'g'ri tendensiya kuzatiladi: birinchisi - asarning mazmunini so'zlab berish bilan tahlilni almashtirish; ikkinchisi - turli asarlardagi tamomila boshqa-boshqa qahramonlarga “bir xil baho” berish va faqat g'oya qidirish. I.Sultonning “Adabiyot nazariyasi” da ta'kidlanganidek, epik asarda “bayonning tashkiliy o'rne”, dramatik asarda esa “dramatizm - ruhiy xavotir shiddatining tasviri” yetakchi o'rin tutishi bu ikki turni tahlil qilishda tubdan farqli yondashuvni talab qiladi.

Q.Husanboyeva va R.Niyozmetova adabiyot ta'limining asosiy maqsadi “o'quvchi ma'naviy kamolotini ta'minlash” ekani ta'kidlanib, asarni tahlil qilishda “o'quvchida insoniy sifatlarni qaror toptirishga erishish” ko'zda tutilishi lozim deyiladi. Biroq bu pedagogik maqsadga erishishning aniq metodologik yo'llari epik va dramatik turlar bo'yicha alohida ko'rsatilmagan. T.Boboyev “Adabiyotshunoslik asoslari” (2000) kitobida ham bu turlarning nazariy ta'rifi berilgan, lekin tahlil metodikasi tizimli yoritilmagan.

Shunga ko'ra, ushbu maqolaning maqsadi - epik va dramatik asarlar tahlilining nazariy-metodologik asoslarini tizimlashtirish va ularni Abdulla Qahhorning “O'g'ri” hikoyasi hamda Sofoklning “Shoh Edip” tragediyasi misolida ko'rsatishdan iborat. Tadqiqot vazifalari: epik tur tahlilining beshta asosiy tamoyilini aniqlash; dramatik tur tahlilining to'rtta o'ziga xos kategoriyasini asoslash; ikkala metodologiyani muayyan asarlar misolida

amaliy sinab ko‘rish; epik va dramatik tahlil metodologiyasi o‘rtasidagi farq va umumiyliklarni aniqlash.

Metod (methods). Tadqiqotda quyidagi usullar qo‘llanildi. Asosiy usul - nazariy-tahliliy usul: epik va dramatik asarlar tahlilining tamoyillari birlamchi manba adabiyotlar asosida aniqlab, tizimlashtirilib, umumlashtirildi. Ikkinchi usul - qiyosiy tahlil: ikkala adabiy tur metodologiyasining farqlari va umumiyliklari belgilandi. Uchinchi usul - tekstual tahlil: tanlangan asarlarning bevosita matni tahlilga tortildi.

Nazariy manba bazasi to‘rt qatlamdan iborat. Birinchi qatlam – o‘zbek adabiyotshunoslik nazariyasi: H.Umurovning “Adabiyotshunoslik nazariyasi” (2004) va “Badiiy ijod mo‘jizalari” (1992); I.Sultonning “Adabiyot nazariyasi” (1980, 2005); T.Boboyevning “Adabiyotshunoslik asoslari” (2000); D.Quronovning “Adabiyotshunoslikka kirish” (2007). Ikkinchi qatlam - adabiyot o‘qitish metodikasi: Q.Husanboyeva va R.Niyozmetovanning qo‘llanmasi (2020); Q.Yo‘ldoshevning “Yoniq so‘z” (2006). Uchinchi qatlam – G‘arb va sharq klassik poetikasi: Aristotelning “Poetika” (1980); Abu Nasr Forobiyning “She‘r san‘ati” (1979). To‘rtinchi qatlam - tahlil uchun tanlangan badiiy matnlar: A.Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasi va Sofoklning “Shoh Edip” tragediyasi.

Ikki asar tanlanishining metodologik asosi: “O‘g‘ri” hikoyasi hajman mo‘jaz, biroq har bir so‘z ma‘noli bo‘lgani uchun tekstual tahlilga ideal namuna hisoblanadi. “Shoh Edip” esa peripetiya, sahnaviylik va xarakter ochilishining jahon adabiyotidagi eng klassik namunasi sifatida dramatik tahlilni ko‘rsatish uchun tanlandi. Sifat tahlili metodologiyasi qo‘llanib, quyidagi bosqichlar amalga oshirildi: manba o‘rganish → tamoyillar aniqlash → tasniflash → amaliy sinov → qiyosiy umumlashtirish.

Natijalar (results). Tahlil mobaynida “asarlarning mazmunini so‘zlab berish mumkin emas”, chunki tahlilchi “qanchalik mahoratli bo‘lmasin badiiy asarni adibning o‘ziday aytib berolmaydi” va bunday holda “asarning o‘zi emas, uning suyaklari yetib boradi, xolos”. Ikkinchidan, mazmun so‘zlab berilsa “matn tahlil qilinmay, asarning barcha unsurlari badiiy elakdan o‘tkazilmay turib, uning zamiridagi estetik ma‘no noma‘lumligicha qolaveradi”

A.Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasi (1930-yillar) “hajman mo‘jaz bo‘lsa-da, badiiy maqsadga xizmat qilmaydigan birorta so‘z ham uchramaydi” - bu esa uni tekstual tahlilning namunali ob‘ektiga aylantiradi. Kampirning saharlab turishi tasvirida “zaruriyat taqozosi” - xamir qilish, dastyor yo‘qligi, choli issiq non yeyishi - oddiy tafsilot emas, balki kambag‘al oila hayotining butun timsolidir. “Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho‘kizi yo‘qolmasin” iborasi esa kambag‘al odamning “yuksak orzulardan mahrum” ekanini va uning hayot qadriyatlar iearxiyasini bir jumlada ochib beradi.

Xarakter mantiqiga muvofiqlik: Qobil boboning “yalang bosh, yalang oyoq, yaktakchan” holda tasvirlanishi tashqi ko‘rinish emas - kutilmagan baxtsizlikning ichki zarbasini aks ettiruvchi belgishunos tafsilotdir. “Hammaga qaradi, ammo hech kimni ko‘rmadi” - bu ibora Qobil boboning ruhiy falaj holatini so‘z sarflamay aks ettiradi. Ellikboshining “sura-sura tekshirishi” esa tashqaridan g‘ayrat ko‘rinsa-da, pora uchun ishonch qozonish harakatidir. Shoir aytganidek, “manfaatga qul bo‘lgan odam imondan ayriladi”

Amin va ellikboshi bir xil manfaatparast koʻrinsa-da, ular oʻzaro farqlanadilar. Amin boboni “odam oʻrnida koʻrmaydi” – “chinchalogʻini ikkinchi boʻgʻinigacha burniga tikib, etigining tagiga artadi”, chunki “uyalish faqat insondan boʻladi, inson boʻlmasa uyalilmaydi”. Ellikboshi esa pora olgach “doimigiday sizlab muomala qiladi” - yaʼni unda zohiriy bir odobning saqlanishi bor. Bu farq ikkala obrazning individual qiyofasini koʻrsatadi.

Dramatik asarlar tahlilida esa

Muallifning bevosita ishtiroki yoʻqligi. “Drama asarida muallif mutlaqo ishtirok etmaydi, uning pozitsiyasi biror yoʻl bilan bayon qilinmaydi” - shu sababli “toʻqnashuvlarni maʼnaviy jihatdan baholash va undan estetik xulosa chiqarish kitobxonning hayot tajribasiga, intellektual darajasiga, maʼnaviy sifatlariga bogʻliq boʻlib qoladi”. Bu tahlilchidan alohida sinchkovlik va tayyorgarlik talab qiladi.

Nutqning hal qiluvchi roli. “Dramatik turdagi asarda qahramon nutqi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi” Nutq “monolog shakli bilan tomoshabinlarga, dialog tarzida sahnadosh sheriklarga murojaat qilish, voqealar rivojining, xarakterlar ochilishining” asosiy vositasidir. Dramatik asar tili “bir qadar koʻtarinki, aytilishi jarangli, eshivilishi aniq” boʻlishi lozim - ana shu sabab “dunyodagi barcha dramatik qahramonlarning bir qadar sunʼiyroq tilda soʻzlashi” L.Tolstoy tomonidan ham qayd etilgan.

Sahnaviylikni hisobga olish. Dramatik asarlar “faqat oʻqish uchun emas, asosan koʻrsatish, namoyish etish uchun ham yozilganligi” sababli “teatrda xos xususiyatlar hisobga olinishi” lozim. “B.Yoʻldoshev rejissyorligida qoʻyilgan “Otello” spektaklida Afzal Rafiqov oʻynagan Yago roli bosh qahramonga va spektaklning oʻzi yovuz ruhning iztiroblari namoyishiga aylanib ketgani” buning yorqin misoli. Dramatik asar tahlili va spektakl tahlili - ikki turli sohalar.

Peripetiya va dramatism. Aristotel taʼrifiga koʻra, peripetiya - badiiy asar qahramonlari harakatlarining ular istaganiga mutlaqo zid natija berishi tasviri usuli. Dramatik asarda qahramon uchun hayot-mamot ahamiyatiga ega boʻlgan biror narsaning qoʻldan berilishi yoki amalga oshmay qolishi xavfi tasvirlangan boʻlishi shart - ana shundagina dramatik asar yuzaga chiqadi.

Bir xil fojiaiy holatda ikki qahramon ikki xil yoʻl tutadi - bu Sofoklning dramaturgik dahosini koʻrsatadi.

*Tamom, bari ayon! O, yorugʻ jahon,
Soʻnggi bor koʻrmoqda koʻzlarim seni,
Hayot - harom, nafas - harom, nikoh - harom menga,
Qonga boʻlganganman, jirkanchman, jirkanch!*

Bu toʻrt misraning tahlili shuni koʻrsatadiki, Edip oʻz halokatidan emas, balki oʻz “qoraligidan” - bilmay qilgan gunohidan – qoʻrqadi. Yuksak shaxsning ozod vijdoni uni qamrab olgan. Bu - dramatik asardagi nutq tahlilining qanchalik teran maʼno ochishi mumkinligining namunasi.

Muhokama (discussion). Tadqiqot natijalari epik va dramatik asarlar tahlilining metodologik jihatdan qiyosiy tahlilini yakunlab, muhim xulosaga olib keldi: ikkala adabiy tur tahlilida yagona umumiy tamoyil mavjud - qahramon xarakter mantiqini topish. Ammo bu umumiy tamoyil epik turda voqealar va tafsilotlar orqali, dramatik turda esa nutq va peripetiya orqali amalga oshiriladi.

H.Umurovning “badiiy adabiyot insonshunoslik” ta’rifi ikkala adabiy tur tahlilining asosiy maqsadini bir ta’rif bilan belgilaydi: insonni o’rganish. Epik turda bu maqsadga voqealar og’ushidagi tafsilotlar orqali, dramatik turda esa sahna va nutq orqali erishiladi. Bu farq texnik emas, balki badiiy tabiatdan kelib chiqadi.

Q.Husanboyeva va R.Niyozmetova ta’kidlagan “o’quvchida personajlarning shodlik va qayg’ulariga hamdardlik uyg’otish orqali odamiylik sifatlarini qaror toptirishga erishish” maqsadi ikkala tur tahlilida bir xil yakuniy maqsad ekanini ko’rsatadi. Biroq bu maqsadga erishish yo’li turlicha: epik turda o’quvchi tafsilotlarni «ilgay olishi», dramatik turda esa sahnaviy holat va nutqni “ichdan his etishi” talab qilinadi.

Q.Yo’ldoshev o’zining “Yoniq so’z” (2006) kitobida adabiy tahlilchi “asar zamiridagi hayotiy va badiiy mantiqni tularoq ochish va matnning estetik jozibasini tuyish” imkoniyatiga ega bo’lishi lozimligini ta’kidlaydi. Aristotelning “Poetika”sida katarsis – “qo’rquv va hamdardlik orqali ruhni poklash” ta’rifi dramatik asar tahlilining yakuniy maqsadini belgilaydi. Aynan “Shoh Edip” tahlili ko’rsatdiki, to’g’ri tanlangan nutq parchasi va peripetiyani tushuntirish o’quvchida chin katarisik tajriba hosil qiladi. Epik turda esa A.Qahhor hikoyasining tahlili “o’quvchilarda ojiz, qarshilik ko’rsata olmaydigan odamlarga nisbatan hamdardlik” hosil qiladi - bu ham o’ziga xos katarsis.

Xulosa (conclusion). Ushbu tadqiqot epik va dramatik adabiy turlar tahlilining nazariy-metodologik asoslarini tizimlashtirdi. Epik asarda dramadagi singari makon va zamonda sodir bulgan voqealar aks ettiriladi. Epik asarning o’ziga xosligini ta’minlaydigan asosiy jixat unda bayoning tashkiliy urni muximligidaniboratdir. Nutq egasi, so’zlovchi yoki bayonchi go’yo oldin bo’lib o’tgan voqeani hikoya kilibberayotganday buladi va ayni vaqqtida yol-yolakay turli xolatlarni, personajlar kiyofasinitasvirilaydi, ba’zan izoxlaydi. Epik asarlarning, odatda, xajman yirikligi, ko’pincha, lirik asarlar singari bir zarb bilan o’qib chikib bo’lmasligi, uning ta’sir kursatishi ham serqatlam ekanligi taxlilda e’tiborga olinishi lozim. Bu xil asarda tuyg’ular okimi bir tarafga yunalgan bulmaydi. Unda tuknashuvlar, xis-xayajonlar, olqish-u karg’ishlar, ma’qullash-u inkorlar g’oyat sertarmoq, ko’p farvaterli bo’ladiki, taxlilchi ana shu badiiy oqimlar orasida tadqiqining kalavasini yo’qotib ko’yishi mumkin. Epik asarlarni taxlilkilishning o’ziga xosligini keltirib chikargan omillar ayni shu xajm va kulamdir. Lirik asarlardamuallif xissiyotini yashirib utirmaydi, butun asar fakat tuygular junbushiga kuriladi, kechinmalarkanchalik kuchli va ularning ifodasi kanchalik yorkin bulsa, lirik asarlardan chikadigan badiiy ma’no xam shunchalik salmokli buladi. Epik asarlarda esa, muallif tuyg’usi xam, lirik asarlarda mutlaqo bo’lmaydigan personajlarkechinmalari xam, ko’pincha, ochiq xolda kelmaydi. Bu xil asarlarda xissiyot voqealar ka’rigaberketilgan buladi. Kaxramonlarni vokelar ogushida kursatish xususiyati epik asarlarda insoniy kechinmalarni tafsilotlar tasviri zamiriga joylash imkonini beradi va o’quvchidan bu sezimlarni ilg’ab olish talab qilinadi. Taxlilchi o’z mushtariylarida ayni shu malakani - epik asar zamiridagibadiiy ma’noni ilg’ay olish va mantiqiy xulosaga kela bilishni shakllantirishga intilishi, eng muhimi, asarning hayotiy va badiiy ma’nosini kashf eta olishi kerak. Boshdanoq qat’iy xukm tarzida ta’kidlab aytish kerakki,

taxlillanadigan asar qanchalik yirik, vokealar tasviri qanchalar serqatlam, personajlar soni nechogʻlik koʻp boʻlmasin, taxlil mobaynida asarlarning mazmunini soʻzlab berish mumkin emas. Buning ikki sababi bor: birinchidan, taxlilchi kanchalik maxoratli bulmasin badiiy asarni adibning uziday aytib berolmaydi va buning zaruriyati ham yoʻq. Chunki matn bilan tanishganlar uni bilishadi. Asarni oʻqmaganlarga matnning tarovatini bir qadar yoʻqotib hikoya qilib berishning foydasi yoʻq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umurov, H. Adabiyotshunoslik nazariyasi: Oliy oʻquv yurtlari uchun darslik. — Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
2. Umurov, H. Badiiy ijod moʻjizalari. — Samarqand: Samarqand, 1992.
3. Sulton, I. Adabiyot nazariyasi. — Toshkent: Oʻqituvchi, 1980.
4. Husanboyeva, Q., Niyozmetova, R. Adabiyot oʻqitish metodikasi: oʻquv qoʻllanma. 2-nashr. — Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. — 352 b.
5. Boboyev, T. Adabiyotshunoslik asoslari. — Toshkent: Oʻzbekiston, 2000. — 208 b.
6. Quronov, D. Adabiyotshunoslikka kirish. — Toshkent: Fan, 2007.
7. Yoʻldoshev, Q. Yoniq soʻz. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
8. Aristotel. Poetika (poeziya sanʼati haqida). — Toshkent: Fan, 1980.
9. Forobiy, Abu Nasr. Sheʼr sanʼati. — Toshkent: Gʻ.Gʻulom nomidagi nashriyot, 1979. — 143 b.
10. Adabiy turlar va janrlar: uch jildlik. — Toshkent: Fan, 1991–1992.
11. Qahhor, A. Tanlangan asarlar (hikoyalar). — Toshkent: Gʻ.Gʻulom nashriyoti, 1986. — 480 b.
12. Sofokl. Shoh Edip. — Toshkent: Gʻ.Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1987. — 112 b.
13. Abdullayev, S. Adabiy tanqid asoslari. — Toshkent: Oʻzbekiston, 2003.